

## **"O'zbektelekom" AK haqida umumiy ma'lumot**

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi o'z tarmog'i bilan O'zbekiston Respublikasi barcha hududlarini qamrab olgan yirik telekommunikatsiya operatori hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan o'zining telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanib, Kompaniya barcha turdagi telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi.

"O'zbektelekom" AK muntazam ravishda, xalqaro aloqa tashkilotlari bilan aloqada faoliyat yuritadi, xalqaro telekommunikatsiya loyihalarda ishtirok etadi, chet el operatorlari va telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan ikki tomonlama hamkorlik olib boradi.

"O'zbektelekom" AK Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XSI), aloqa sohasida Mintaqaviy hamjamiyat (ASMH), "Intelsat" yo'ldoshli aloqa tashkiloti bilan faol hamkorlik qiladi.

Kompaniyaning mahalliy telekommunikatsiya tarmog'i zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan bo'lib doimiy ravishda modernizatsiya qilib boriladi.

2022 yilga kelib, Kompaniya 107 ta davlatda 174 ta xalqaro aloqa operatorlari bilan rouming hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bunda, UZTELECOM mobil aloqa abonentlari uchun dunyoning 102 mamlakatida rouming xizmatlari korsatiladi.

Kompaniyaning transport tarmog'i zamonaviy tarmoq texnologiyalaridan foydalanish bilan optik-tolali va radioreleli liniyalar asosida tashkil etilgan. Yangi xizmat turlarini taqdim etishda yuqori sifatni ta'minlash va xizmat turlarini kengaytirish maqsadida DWDM hamda IP-MPLS texnologiyalari orqali 100% zahiralangan, barqaror va yuqori tezlikda ma'lumotlarni uzatish tizimlaridan foydalanilmoqda. Kompaniya Xalqaro paketli kommutatsiya markazi (XPKM) orqali respublikaning barcha operator va provayderlariga global Internet tarmog'iga ulanish xizmatlarini taqdim etadi.

"O'zbektelekom" AK an'anaviy simli telefon aloqasi sohasida 30 ga yaqin xalqaro operatorlar bilan hamkorlik asosida ikkita xalqaro kommutatsiya markazlari orqali xalqaro telefon aloqasini ta'minlaydi.

2011-yildan UZTELECOM™ savdo belgisi Kompaniyaning bosh brendi hisoblanadi.

UZTELECOM™ bosh brendi bilan milliy operator sifatida ichki va xalqaro bozorlarda operatorlar uchun, mahalliy bozorda chakana savdo sektori uchun barcha turdagi telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi.

Kompaniya tarkibida 14 ta hududiy va 8 ta ixtisoslashtirilgan, jami 22 ta filial faoliyat olib boradi. 2021 yil yakuniga ko'ra 17 mingdan ortiq xodimlar Kompaniyada faoliyat yuritmoqda.

"O'zbektelekom" AK respublikamiz hududida telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi sakkizta qo'shma korxonalarda ulushiga ega.

"O'zbektelekom" AK davlat hokimiyati organlari, idora va tashkilotlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan iborat iste'molchilar uchun telekommunikatsiya xizmatlari bozorida so'zsiz yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda.

Kompaniya eng so'nggi texnologiyalar joriy qilingan mobil aloqa tarmog'i orqali aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Kompaniya mobil aloqa tarmog'idagi barcha tayanch stansiyalari 3G/4G texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lib, hozirgi kunda 5G texnologiyasini joriy qilish bo'yicha ishlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Kompaniya xizmatlarining yuqori sifati va ishonchliligi sifat menejmenti tizimiga muvofiq sertifikatlar bilan tasdiqlangan.

2013 yil 11 noyabrda "O'zbektelekom" AKga sertifikatlashtirish auditi natijalariga ko'ra O'z DSt ISO 9001:2009 (ISO 9001:2008) standart talablariga muvofiqlik sertifikati berildi.

2020 yilda "O'zbektelekom" AK ISO 9001:2015 standarti talablari bo'yicha xalqaro tizimda sertifikatlashdan muvaffaqiyatli o'tdi, shuningdek, milliy tizimda O'z DSt ISO 9001:2015 (ISO 9001:2015) standarti talablari bo'yicha muvofiqligini tasdiqladi.

Kompaniya sifat menejmenti tizimi telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish, Call-markaz xizmatlarini taqdim etishda qo'llaniladi.

2021 yil – xalqaro axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga kirishning umumiy tezligi 1800 Gbit/s gacha oshirildi.

50 575 km optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi. Ushbu liniyalarning umumiy uzunligi 122,5 ming km ni tashkil etdi, optik tolali aloqa liniyalari bilan qamrab olish darajasi aholi punktlarining 57 foizini tashkil etadi.

Mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish uchun 2021 yilda 902 ta qo'shimcha baza stansiyalari o'rnatilib, ularning umumiy soni 19 233 taga yetdi.

O'zbekiston bo'ylab 3,4 million xonadonga keng polosali internetdan foydalanish imkoniyati taqdim etildi.

Aloqa kanallarining uzunligi, shu jumladan, shaharlararo, xalqaro va zonal optik tolali aloqa liniyalari 197,13 mln. kanal/km gacha oshdi.

Magistral transport tarmog'ining quvvati 42,4 Tbit/s ga yetdi.

Iste'molchilar ovoz berish natijalariga ko'ra, UZTELECOM aloqa sohasida 2021 yil brendi sifatida tanlandi.

2021 yilda keng polosali internetdan foydalanuvchilar soni 40 foizga oshib, 1,4 million abonentga yetdi. Mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilarning umumiy soni \*\*\* million abonentni tashkil etdi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan operator va provayderlar uchun tashqi internet-kanalning 1 Mbit/s narxi 25 foizga, ya'ni 40 043,14 so'mdan 30 045,00 so'mgacha arzonlashtirildi.

2021 yil may oyida Uptime Institute UZTELECOM bulutli data-markazining loyihalash hujjatlarini tasniflash bo'yicha Tier III darajali xalqaro sertifikatiga loyiq deb topdi. Bu UZTELECOM bulutli data-markazining ishonchlilik darajasi Uptime Institute tasniflash bo'yicha xalqaro Tier III tizimiga mos kelishini, ya'ni data-markaz infratuzilmasi "N+1" formulasi bo'yicha zaxiralanganligini, xatolarga bardoshlik koeffitsiyenti esa 99,982% ni tashkil qilishini anglatadi.

2022 yil iyun oyida Germaniyada bo'lib o'tgan tadbirda kompaniya "MDHdagi eng yaxshi rivojlanayotgan mintaqaviy operator" deb topildi.

"Optik tolali aloqa liniyalarini qurish" loyihasi doirasida 2022 yilda 44,13 ming km optik tolali aloqa liniyalari qurilib, aholi punktlarini internet bilan qamrab olish darajasini 86 foizga yetkazish imkonini berdi.

2022 yilda bazaviy stansiyalarning umumiy soni 20 420 taga yetdi, aholi punktlarini mobil aloqa xizmatlari bilan qamrab olish darajasi 91 foizni tashkil etdi.

2022 yil yakuniga ko'ra, mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchilarning umumiy soni \*\*\* million abonentni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 5 foizga o'sdi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan operator va provayderlar uchun tashqi internet kanalining 1 Mbit/s narxi 30 037,88 so'mgacha pasaytirildi.

Buxoro shahrida Google kesh serveri ishga tushirildi.

2022 yil yakuni bo'yicha kompaniya xodimlarining umumiy soni 17 747 nafarni tashkil etib, shundan ayollar 26 foizni (4 595 nafar), 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar esa 28 foizni (4 906 nafar) tashkil etdi.

Toshkent metropoliteni UZTELECOM kompaniyasining mobil aloqa va mobil interneti bilan to'liq ta'minlandi.

2023 – Kompaniya ketma-ket uchinchi marta “Aloqa” nominatsiyasida nufuzli «Yil brendi» mukofotini qo'lga kiritdi.

2023 yil davomida UZTELECOM tomonidan respublika bo'ylab 60 ming kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari yotqizilib, umumiy uzunligi 227 ming kilometrdan ko'proqqa kengaytirildi.

UZTELECOM O'zbekiston bo'ylab 6000 dan ortiq yangi tayanch stansiyalarini ishga tushirdi va yangiladi.

Berlin (Germaniya) shahrida bo'lib o'tgan GCCM Europe 2023 marosimida UZTELECOM “MDH mamlakatlari 2023 yilgi mintaqaviy operatori” unvoniga sazovor bo'ldi.

2023 yilning 1- va 2-choraklarida O'zbekistondagi “Eng tezkor mobil tarmoq” deb topildi.

Toshkent va Samarqand shaharlari to'liq 5G bilan ta'minlandi.

Aholiga yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan qurilmalarning umumiy sig'imi 4,8 milliondan ortiq portgacha oshirildi.

100% ijtimoiy soha obyektlari, 92% aholi punktlari internet tarmog'idan foydalanishi ta'minladi.

Telecom TV platformasi ishga tushirildi.

Hamkor Apple Inc. bilan olib borilgan muvaffaqiyatli muzokaralar tufayli O'zbekistonda birinchi marta, iOS 16.4 versiyasiga yangilangan Apple qurilmalari foydalanuvchilari 5G tarmog'iga ulanish funksiyasiga ega bo'ldi

UZTELECOM Ookla® xalqaro kompaniyasining 2023 yilning 1-2-choragi bo'yicha “Eng tezkor mobil tarmoq” nominatsiyasida oliy mukofotiga sazovor bo'ldi.

UZTELECOM Markaziy Osiyoda Tencent CDN-serverlarini PUBG Mobile o'yini uchun lokalizatsiya qilish loyihasini amalga oshirgan birinchi kompaniya bo'ldi

"Toshkent" Respublika fond birjasida Kompaniya qimmatli qog'ozlarini birlamchi joylashtirish bo'yicha tadbirlar yakunlandi. Unda umumiy hajmi 5 542 046 dona bo'lgan oddiy aksiyalarni auksionga qo'yildi.

UZTELECOM mobil aloqa abonentlari uchun VoLTE texnologiyasini bosqichma-bosqich joriy qilishni boshladi